

Zahiriddin Muhammad BOBUR



BOBURNOMA

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi
Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi

Zahiriddin Muhammad Bobur

BOBURNOMA

Vaqoe'



O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi
«FAN» nashriyoti
Toshkent—2018

UO'K 821.512.133(092)
KBK 84(50')1
B-79

Nashrga tayyorlovchi va lug'at-izohlar mualliflari:
Saidbek Hasanov, *filologiya fanlari doktori*
Otabek Jo'raboyev, *filologiya fanlari nomzodi*

Mas'ul muharrir:
Jabbor Eshonqulov, *filologiya fanlari doktori*

Muharrir
Anvar Zulfiqorov

Badiiy muharrir
Umid Sapayev

Sahifalovchi
Hasan Maqsudov

«Boburnoma» — o'zbek mumtoz adabiyotidagi bebaho asarlardan. Unda O'rta Osiyo, Afg'oniston, Hindiston va Eron xalqlari tarixi, jug'rofiyasiga oid qimmatli ma'lumotlar bor. O'sha davr o'zbek tilining yorqin namunasi ekanligi esa yanada muhimroqdir.

ISBN 978-9943-19-440-3

© "Boburnoma", O'zR FA Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi, 2018

© O'zbekiston Fanlar akademiyasi «**Fan**» nashriyoti, 2018

MUNDARIJA

Bismillahir rohmanir rohiym.....	5
Vaqoe' u sanati tis' i mia <i>Milodiy 1494–1495-yil voqealari</i>	28
Vaqoe' u sanati ihdo va tis' i mia <i>Milodiy 1496-yil voqealari</i>	37
Vaqoe' u sanati-snatayni va tis' i mia <i>Milodiy 1496–1497-yil voqealari</i>	42
Vaqoe' u sanati salosin va tis' i mia <i>Milodiy 1497–1498-yil voqealari</i>	47
Vaqoe' u sanati arba' in va tis' i mia <i>Milodiy 1498–1499-yil voqealari</i>	62
Vaqoe' u sanati xamsin va tis' i mia <i>Milodiy 1499–1500-yil voqealari</i>	69
Vaqoe' u sanati sittin va tis' i mia <i>Milodiy 1500–1501-yil voqealari</i>	82
Vaqoe' u sanatin sab' in va tis' i mia <i>Milodiy 1501–1502-yil voqealari</i>	96
Vaqoe' u sanati samonin va tis' i mia <i>Milodiy 1502–1503-yil voqealari</i>	103

KOBUL

Vaqoe' u sanati tis' in va tis' i mia <i>Milodiy 1503–1504-yil voqealari</i>	125
Vaqoe' u sanati ihdo asharata va tis' i mia <i>Milodiy 1504–1505-yil voqealari</i>	163
Vaqoe' u sanati-isnatay asharata va tis' i mia <i>Milodiy 1506–1507-yil voqealari</i>	193

Vaqoe' u sanati salosa asharata va tis' i mia <i>Milodiy 1507–1508-yil voqealari</i>	214
Vaqoe' u sanati arbaa asharata va tis' i mia <i>Milodiy 1508–1509-yil voqealari</i>	227
Vaqoe' u sanati xamsin va ishrina va tis' i mia <i>Milodiy 1519–1520-yil voqealari</i>	228
Vaqoe' u sanati sittin va ishrina va tis' i mia <i>Milodiy 1522–1523-yil voqealari</i>	263

HINDISTON

Vaqoe' u sanati-snatayni va salosina va tis' i mia <i>Milodiy 1525-yil voqealari</i>	268
Vaqoe' u sanati salosin va salosina va tis' i mia <i>Milodiy 1527-yil voqealari</i>	322
Fathnomayi Zahiriddin Muhammad Bobur G' ozi	338
Vaqoe' u sanati arbain va salosina va tis' i mia <i>Milodiy 1526–1527-yil voqealari</i>	354
Vaqoe' u sanati hamsin va salosina va tis' i mia <i>Milodiy 1528-yil voqealari</i>	363
Vaqoe' u sanati sittin va salosina va tis' i mia <i>Milodiy 1529-yil voqealari</i>	407
ILOVALAR.....	418



BISMILLAHIR ROHMANIR ROHIYM

Tengri taoloning inoyati bilan va hazrati on Sarvari koinotning shafobati birlan va chahoryori bosafolarning himmati birlan seshanba kuni, ramazon oyining beshida, tarix sekkiz yuz to‘qson to‘qquzda¹ Farg‘ona viloyatida o‘n ikki yoshda podshoh bo‘ldum.

Farg‘ona viloyati beshinchi iqlimdindir. Ma‘muraning kanorasida² voqe‘ bo‘lubtur. Sharqi Koshg‘ar, g‘arbi Samarqand, janubi Badaxshonning sarhadi tog‘lari, shimolida agarchi burun shaharlar bor ekan; misli: Olmoliq va Olmotu va Yangikim, kutubda O‘tror bitirilar, mo‘g‘ul va o‘zbek jihatidin bu tarixda buzulubtur, aslo ma‘mura qolmabdur.

Muxtasar viloyattur, oshlig‘ va mevasi farovon. Girdo-girdi tog‘ voqe‘ bo‘lubtur. G‘arbi tarafidakim, Samarqand va Xo‘jand bo‘lg‘ay, tog‘ yo‘qtur. Ushbu jonibga³ o‘zga hech jonibtin qish yog‘iy⁴ kela olmas. Sayxun daryosikim, Xo‘jand suyig‘a mashhurur, sharqu shimol tarafidin kelib, bu viloyatning ichi bila o‘tub, g‘arb sori oqar, Xo‘jandning shimoli va Fanokatning janubiy tarafidinkim, holo Shohruhiyag‘a mashhurur, o‘tub yana shimolg‘a mayl qilib, Turkiston sori borur. Turkistondin heyli quyiroq bu daryo tamom qumg‘a singar, hech daryog‘a qotilmas.

Yetti pora qasabasi bor; beshi Sayxun suyining janub tarafida, ikki shimol jonibida. Janubiy tarafidag‘i qasabalar: biri Andijondurkim, vasatta voqe‘ bo‘lubtur, Farg‘ona viloyatining poytaxtidur. Oshlig‘i vofir, mevasi farovon, qovun va uzumi yaxshi bo‘lur. Qovun mahalida poliz boshida qovun sotmoq rasm emas. Andijonning noshpotisidin yaxshiroq noshpoti bo‘lmas.

Movarounnahrda Samarqand va Kesh qo‘rg‘onidin so‘ngra mundin ulug‘roq qo‘rg‘on yo‘qtur. Uch darvozasi bor. Arki janub tarafida

¹ Hijriy 899 (milodiy 1494) yil.

² **Ma‘mura kanorasi** — bu o‘rinda “mamlakat chetida, bir qismida” ma‘nosidadir.

³ **Jonib** — taraf, qism.

⁴ **Yog‘iy** — dushman.

voqe' bo'lubtur. To'qquz tarnov suv kirar. Bu ajabturkim, bir yerdin ham chikmas.

Qal'aning girdo-girdi xandakning tosh yoni sangrezalik shoxroh tushubtur. Qal'aning girdo-girdi tamom mahallottur. Bu mahalla bila qal'ag'a fosila ushbu xandaq yoqasi dog'i shohrohtur.

Ovi qushi dag'i ko'p bo'lur, qirg'ovuli behad semiz bo'lur. Andoq rivoyat qildilarkim, bir qirg'ovulni oshginasi bila to'rt kishi yeb tugata olmaydur.

Eli turkdur. Shahari va bozorisida turkiy bilmas kishi yo'qtur. Elining lafzi qalam birla rosttur. Ani uchunkim, Mir Alisher Navoiyning musannafoti, bovujudkim Hiriya nash'u namo topibtur, bu til biladur.

Elining orasida husni heyli bordur. Xoja Yusufkim musiqada mashhurdur, andijoniydur. Havosining ufunati bor. Kuzlar el bezgak ko'p bo'lur.

Yana bir O'sh kasabasidur. Andijonning sharqi-janubiy tarafidur, sharqqa moyil, Andijondin to'rt yig'och yo'ldur. Havosi xo'b va oqar suyi farovondur. Bahori bisyor yaxshi bo'lur.

O'shning fazilatida heyli ahodis vorid bo'lubtur Qo'rg'onining sharqi janubiy jonibida bir mavzun tog' tushubtur, Baroko'hg'a mavsum. Bu tog'ning qullasida Sulton Mahmudxon bir hujra solibtur, ul hujradin quyiroqushbu tog'ning tumshug'ida tarix to'qquz yuz ikkida men bir ayvonliqhujra soldim. Agarchi ul hujra mundin murtafi'dur, vale bu hujra bisyor yaxshiroq voqe' bo'lubtur: tamom shahar va mahallot oyog' ostidadur. Andijon rudi O'shning mahallotining ichi bila o'tub, Andijong'a borur. Bu rudning har ikki jonibi bog'ot tushubtur, tamom bog'lari rudka mushriftur, binafshasi bisyor latif bo'lur. Oqar suvlari bor, bahori bisyor yaxshi bo'lur, qalin lola va gullar ochilur. Baroko'h tog'i domanasida shahar bila tog'ning orasida bir masjid tushubtur, Masjidi Javzo otliq. Tog' tarafidin bir ulug' shahjo'y okar. Ushbu masjidning tashqari sahni nishebroq, se bargaliq pursoya, safoliq maydon voqe' bo'lubtur. Har musofir va rahguzar kelsa, anda istirohat qilur. O'sh avboshining zarofati budurkim, har kim anda uyqulasa, ul shahjo'ydin suv quyarlur.

Umarshayx mirzoning oxir zamonlarida qizil bila oq mavjliq tosh ushbu tog'da paydo bo'ldi: pichoq dastasi va takband va ba'zi nimalar qilurlur, heyli yaxshi toshdur. Farg'ona viloyatida safo va havoda O'sh chog'liq kasaba yo'qtur.

Yana bir Marg'inondur, Andijonning g'arbidador; Andijondin yetti yig'och yo'ldur. Yaxshi qasaba voqe' bo'lubtur, purne'mat: anori va o'rugi asru xo'b bo'lur. Bir jins anor bo'lur, «donakalon» derlar, chuchuklugida zardolu mayxushlugidin andak choshnisi bor. Samnon anorlarig'a tarjih qilsa bo'lur. Yana bir jins o'ruk bo'lurkim, donasini olib, ichiga mag'z solib quruturlar, «subhoniyy» derlar, bisyor lazizdur.

Ov qushi yaxshidur, oqkiyik yovuqta topilur. Eli sorttur va mushtzan va pursharu sho'r eldur. Jangaraliq rasmi Movarounnahrda shoyi'dur, Samarqand va Buxoroda nomdor jangaralar aksar Marg'inoniydur.

Sohibi «Hidoya» Marg'inonning Rishdon otliq kentidindur.

Yana bir Isfaradur, ko'hroyada voqe' bo'lubtur. Oqar suvlari, safoliq bog'chalari bor. Marg'inonning g'arbi-janubidador. Marg'inon bila Isfara orasi to'qquz yig'och yo'ldur.

Musmir daraxtisi bisyordur, vale bog'chalarida aksar bodom daraxtidur. Eli tamom sart va forsigo'ydur. Isfaraning bir shar'isida janub sori pushtalarning orasida bir parcha tosh tushubdur, «Sangi oyina» derlar, uzunlug'i taxminan o'n qari bo'lg'ay, balandlig'i ba'zi yeri kishi bo'yi, pastlig'i ba'zi yeri kishining belicha bo'lg'ay, oyinadek har nima mun'akis bo'lur.

Isfara viloyati to'rt bo'luk ko'hpoyadur: bir Isfara, yana bir Voruhyana bir So'hyana bir hushyor.

Muhammad Shayboniyxon Sulton Mahmudxon bila Olachaxong'a shikast berib, Toshkand va Shohruxiyani olg'on mahalda, ushbu So'x bila Hushyor ko'hpoyalarig'a kelib, bir yilg'a yovuq tanqisliq bila o'tkarib, Kobul azimati qildim.

Yana bir Xo'janddur, Andijondin g'arb sorig'a yigirma besh yig'och yo'ldur. Xo'janddin Samarqand ham yigirma besh yig'och yo'ldur, qadim shaharlardindur. Shayx Muslihiddin va Xoja Kamol Xo'jandtindurlar.

Mevasi farovon va bisyor yaxshi bo'lur. Anori yaxshiliqqa mashhurdur. Nechukkim, «sebi Samarqand» va «anori Xo'jand» derlar. Vale bu tarixda Marg'inon anori ko'p ortuqdur.

Qo'rg'oni baland yerda voqe' bo'lubtur. Sayxun suyi shimol jonibidin oqar. Qo'rg'ondin daryo bir o'q otimi bo'lg'ay. Qo'rg'on bila daryoning shimol tarafida bir tog' tushubtur. Mevag'ul otliq, derlarkim, bu tog'da feruza koni va ba'zi konlar topilur. Bu tog'da bisyor yilon bor.

Xo'jandning ovlog'i va qushlog'i bisyor yaxshidur. Oq kiyik bug'umaral, qirg'ovul va tovushqoni ko'p bo'lur. Havosi bisyor mutaaffindur, kuzlar bezgak ko'p bo'lur. Andoq rivoyat qildilarkim, chumchuq bezgak bo'lg'andur. Derlarkim, havosining taaffuni shimoldag'i tog' jihatidindur.

Muning tavobiidin Kandibodomdur. Agarchi kasaba emas, yaxshig'ina kasabachadur. Bodomi yaxshi bo'lur. Bu jihatdin bu ismg'a mavsumdur. Xurmuz va Hindustong'a tamom muning bodomi borur. Xo'janddin besh-olti yig'och sharq tarafidadur. Xo'jand bila Kandibodom orasida bir dashte tushubtur, Xodarveshg'a mavsumdur. Hamisha bu dashtta yel bordur. Marg'inong'akim, sharqidur, hamisha mundin yel borur. Xo'jandg'akim, g'arbidur, doyim mundin yel kelur: tund yellari bor.

Derlarkim, bir necha darvesh bu bodiyada tund yelga yo'luqub, bir-birini topolmay «Ho darvesh», «Ho darvesh» deya-deya tamom halok bo'lurlar, andin beri bu bodiyani "Hodarvesh" derlar. Sayxun suyining shimoli tarafidag'i kasabalar: bir Axsidur.

Kitoblarda Axsikat bitirlar. Nechukkim, Asiriddin shoirni Asiriddin Axsikatiy derlar. Farg'onada, Andijondin so'ngra mundin ulug'roq qasaba yo'ktur.

Andijondin g'arb sori to'qquz yig'och yo'ldur. Umarshayx mirzo muni poytaxt qilib edi. Sayxun daryosi qo'rg'onining ostidin oqar. Qo'rg'oni baland jar ustida voqe' bo'lubtur. Xandaqining o'rniga amiq jarlardur. Umarshayx mirzokim, muni poytaxt qildi, bir-ikki martaba tashqariroqdin yana jarlar soldi. Farg'onada muncha berk qo'rg'on yo'qtur. Mahalloti qo'rg'ondin bir shar'iy yiroqroq tushubtur. «Deh kujovu daraxton kujo»⁵ masalini g'olibo, Axsi uchun aytiburlar.

Qovuni yaxshi bo'lur. Bir nav qovundurkim, «Mirtemuriy» derlar, andoq qovun ma'lum emaskim, olamda bo'lg'ay. Buxoro qovuni mashhurdur. Samarqandni olg'on mahalda Axsidin va Buxorodin qovun kelturub bir majlisda kesturdum, Axsi qovunining hech nisbati yo'q erdi.

Ovi kushi bisyor yaxshi bo'lur. Sayxun daryosining Axsi tarafi dashttur. Oq kiyigi bisyor bo'lur. Andijon tarafi jangaldur. Bug'umaral, qirg'ovul, tovushqoni ko'p topilur, asru semiz bo'lur.

⁵ Forscha maqol. Tarjimasi: «Qishloq kayda-yu, daraxtlar qayda».

Yana bir Kosondur, Axsining shimolida tushubtur. Kichikroq kasabadur. Nechukkim, Andijon suyi O'shdin kelur, Aкси suyi Kosondin kelur. Yaxshi xavoliq yerdur. Safoliq bog'chalari bor. Vale safo-liq bog'chalari tamom soy yoqasida voqe' bo'lg'an uchun, «po'stini pesh berra»⁶ debturlar. Safo va havoda O'sh bila Koson elining ta-assubi bor.

Farg'ona viloyatining girdo-girdi tog'larida yaxshi yayloqlari bor. Tobulg'u yig'ochi bu tog'larda bo'lur, o'zga hech yerda bo'lmas. Tobulg'u bir yig'ochedur, po'sti qizil, aso qilurlar, qamchi dastasi ham qilurlar, qushlarga qafas qilurlar, tarosh qilib tirtgaz qilurlar, heyli yaxshi yig'ochdur. Tabarruklik bila yiroq yerlarga eltarlar.

Ba'zi kitoblarda bitibturlarkim, «yabruh us-sanam»⁷ bu tog'lar-dadur, vale bu muddatta hech eshitilmadi. Bir giyoh eshitildikim, Yettikentning tog'larida bo'lur, ul el «ayiq o'ti» derlar. Mehrgiyoh xosiyatliq. G'olibo, mexrgiyohdur, ul el bu ot bila ayturlar.

Bu tog'larda feruza koni va temur koni bo'lur. Farg'ona viloyati-niing hosili bila, agar adl qilsalar, uch-to'rt ming kishi saxlasa bo'lur.

Chun Umarshayx mirzo baland himmatliqva ulug' doiyaliq pod-shoh erdi. Hamisha mulkgirlik dag'dag'asi bor erdi. Necha navbat Samarqand ustiga cherik tortti, ba'zi mahal shikast topti, ba'zi mahal bemurod yondi. Necha navbat qoyin-otasi Yunusxonnikim, Chingizxonning ikkinchi o'g'li Chig'atoyxon naslidindur, Chig'atoyxonning yurtida mo'g'ul ulusining xoni ul fursatta ul erdikim, mening ulug' otam bo'lg'ay, istid'o qilib kelturdi. Har qatla kelturganda viloyatlar berur edi. Chun Umarshayx Mirzoning muddaosidek bo'lmas edi, gohi Umarshayx mirzoning badmaoshlig'idin, gohi mo'g'ul ulusining muholafatidin viloyatta tura olmay yana Mo'g'ulistonga chiqar erdi.

Oxir navbat kelaturgandakim, ul fursatta Toshkand viloyati Umarshayx mirzo tasarrufida erdikim, kitoblarda "Shosh" bitirlar, ba'zi "Choch" bitirlarkim, «kamoni chochiy» andin iborattur, berdi.

O'shal fursattin tarix to'qquz yuz sekkizgacha Toshkand va Shohruxiya viloyati Chig'atoy xonlarining tasarrufida edi. Bu fursatta mo'g'ul ulusining xon va sultonlig'i Yunusxonning ulug' o'g'li, mening tag'oyim Sulton Mahmudxonda edi, Umarshayx mirzoning og'asi,

⁶ Maqtash yo'li bilan aytilgan so'z: «Oldiga qorako'l teri tutilgan po'stin» demak.

⁷ **Yabruh us-sanam** — mehrgiyoh o'ti.



Bu tanishuv parchasidir. Asarning to'liq versiyasi
<https://kitobxon.com/oz/asar/3884> saytida.

Бу танишув парчасидир. Асарнинг тўлиқ версияси
<https://kitobxon.com/uz/asar/3884> сайтида.

Это был ознакомительный отрывок. Полную версию можно
найти на сайте <https://kitobxon.com/ru/asar/3884>